

ILK BOLALIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamatqobilova Munisa Dilmurod qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
istititi “Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti
matematika yo’nalishi 1-kurs*

1m-2024 guruh talabasi

Shomurodov Ulug’bek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*Pedagogika fakulteti pedagogika va
psixologiya kafedrası o’qituvchisi*

(maqola ilmiy rahbari)

u. shomurodov 986@ gmail.com

Annotatsiya: *Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari kichik yoshdagi bolalarning rivojlanishining asosiy bosqichlarini o’rganib chiqishga bag’ishlangan ilmiy izlanish va tajribalarni o’z ichiga oladi. Ushbu maqolada ilk bolalik davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari psixik jarayonlari bolalar idrokining takomillashuvi bola xarakteri tahlil qilinadi. Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlarining mohiyati va ularning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishini ta’minlashda oilaning, ta’lim muassasalarining va jamiyatning o’rni yoritilgan. Maqolada ilk bolalik davridagi bolalar psixologiyasining asosiy nazariyalari va maktabgacha ta’lim tizimida ularni hisobga olishning ahamiyati ham ko’rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *ilk bolalik davri, bolalar psixologiyasi, psixologik xususiyatlari, rivojlanish, shaxsiyat, bolalar idroki, bolalar xarakteri, psixik jarayon.*

Аннотация: *Психологические особенности раннего детства включают научные исследования и эксперименты посвященные изучению основных этапов развития детей раннего возраста. В данной статье*

анализируются психологические особенности детей раннего детства психические процессы совершенствование детского восприятия детский характер. Освещены сущность психологических особенностей раннего детства и роль семье образовательных учреждений и общества в обеспечении их социально-эмоционального и познавательного развития. Также в статье рассматриваются основные теории детской психологии раннего детства и важность их учета в системе дошкольного образования.

Ключевые слова; раннее детство, детская психологические особенности, развитие, личность, детское восприятие, детский характер, психический процесс.

Abstract: *Psychological characteristics of early childhood include scientific research and experiments devoted to the study of the main stages stages of development of young children. This article analyzes the psychological characteristics of children in early childhood, mental processes, improvement of children's perception, child's character. The essence of the psychological characteristics of early childhood and the role of the family, educational institutions and society in ensuring their social-emotional and cognitive development are highlighted. The article also considers the main theory of child psychology in early childhood and the importance of their consideration in the preschool education system.*

Keywords: *early childhood, child psychology, psychological characteristics, development, personality, children's perception, children's character, mental process.*

Kirish

Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadi.

Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari asosan go'daklik davri tugab bola hayotida yangi bosqich ya'ni ilk bolalik davri boshlanishini va bola xatti-

xarakatini, o'zini tutishini o'rganadi. Bu davrda bolalarda asosan o'z yaqinlariga ya'ni; onasi, otasi; buvi- buvalari; tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi va bu davrdagi bolalar endi o'z yaqinlardan maqtov olishga harakat qiladilar. Ota-onalar tomonidan bu davrdagi bolalarning xatti- harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga biladigan ijobiy emotsional baholar ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi.

Ilk bolalik davri, ya'ni 0-3 yoshgacha bo'lgan davr, inson hayotining eng muhim va tayinlovchi bosqichlaridan biridir. Bu davrda bola rivojlanishining bir qancha psixologik xususiyatlari mavjud:

1. O'zini anglash: Bolalar o'zlarining shaxsiyati va atrof-muhit bilan aloqa qilishni o'rganadilar. Ular o'z xis – tuyg'ularini va ehtiyojlarini tushunishga harakat qiladilar.

2. Emotsional rivojlanish: Ushbu davrda bolalar turli emotsiyalarni, jumladan, quvonch, qo'rquv, jalb qilish va tushkunlikni his qilishni o'rganadilar. Ota-onalar va atrof – muhit bolalarning emotsional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

3. Ijtimoiy o'zaro aloqalar: Bolalar boshqa insonlar bilan aloqalarni o'rganishni boshlaydilar. Ular ota-onalari, yaqin qarindoshlar va do'stlari bilan o'zaro muloqot qilishni o'rganadilar.

4. Kognitiv rivojlanish: Bolalar tabiatini tushunishga harakat qiladilar va bu jihatdan muhim kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ular asosiy joyni, vaqtni va odamlarni tanishni o'rganadilar.

5. Tajribalar va o'rganish: Bolalar o'zlarining tajribalaridan o'rganishni boshlaydilar. Har bir yangi tajriba ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

6. O'z -o'zini nazorat qilish: bolaning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish ko'nikmalari rivojlanmoqda. Ular tez-tez o'z istaklariga qarshi kurashishga o'z his-tuyg'ularini boshqarishga intilishlarini ko'rsatadilar.

Ushbu psixologik xususiyatlar, bolalarning kelajakdagi rivojlanishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir bola o'ziga xos tarzda rivojlanadi,

shuning uchun ularning tajribalari va ehtiyojlari farq qiladi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning bu davrdagi xavfsiz va qulay muhitda o'sishlarini ta'minlashlari juda muhimdir.

Ilk bolalik davri-Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi – muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash hususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni Bolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamiin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar. 3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha Yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga ollgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha Yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha Yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshlarga ajratish mumkun.

Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lganligi uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bog'chagach tarbiya yoshidagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarnitekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini tafakkur va nutqini hissiyot va xayolini – umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idroki o'sishi uchun zamin yaratadi.

Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham hali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Bolalarda turmush tajribasi yo'qligi tufayli ularning hayotga qiziqishi juda kuchli bo'ladi va har doim hamma narsani qilib ko'rgisi keladi.

Xulosa

Ilk bolalik davridagi bolalar asosan o'z hatti- harakatlarini o'ylab o'tirmaydilar chunki hatti harakatlar ularning hissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning hatti- harakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi.

Ilk bolalik davri bolalarning har taraflama rivojlanishining asosiy davri hisoblanadi. Ular asosan hayotga qiziqish yo'li bilan o'zlarini va boshqalar bilan o'zaro aloqalarni qanday boshqarishni o'rganadilar. Asosan bu davrdagi bolalarning psixologik ehtiyojlarini to'g'ri tushunish va ularni qo'ldan kelgancha qo'llab quvvatlash kerak. Chunki, bu narsa bolaning kelajagiga, kelajakda mukammal inson bo'lib yetishishiga va muvaffaqiyatli rivojlanishiga juda yaxshi ta'sir qiladi. Bu davrda asosan tarbiya va talim muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erik Erikson - „childhood and society” (1950)
2. Erik Eriksonning “Childhood and society” (1950) asari bolalar shaxsiyatining rivojlanishini ijtimoiy va psixologik kontekstdan ko'rib chiqadi.
3. 2.Musilmanov N.A, Mullahmedov R.G “kasb tanlashga yo'llash” Toshkent 2007.
4. 3. Boltaboyev S.A va boshqalar. “Kasb tanlashga yo'llash” ma'ruzalar matni. Toshkent Nizomiy nomli TDPU 2003.
5. 4.Ahror K. Shohjahon U. ANALYSIS OF A PROGRAM THAT PROVIDES ADDITIOONAL SERVICES FOR VISITORS TO RESORTS //Miasto Przyszlosci. – 2024.-T.48. – C.
6. 5. Lev Vygotskiy – MIND IN SOCIETY (1978).